




QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

2018 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 116,8 mlrd. so‘mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,0 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 112,5 mlrd.so‘mni (101,4 foiz), o‘rmon xo‘jaligida – 1,6 mlrd.so‘mni (101,7 foiz), baliqchilik xo‘jaligida – 2,7 mlrd.so‘mni (130,4 foiz) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, baliq va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada oshishi bilan izohlanadi.

Xususan yuqori o‘shish sur‘atlari Mo‘ynoq tumanida (126,9 foiz), Shumanay (104.3 foiz), Amudaryo (103,7 foiz), Qorao‘zak (102,6 foiz) tumanlarida kuzatildi va Nukus shahri (100,1 foiz) Taxiatoch (100,0 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur‘atlar kuzatildi.


Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmida Beruniy tumaninig ulushi 14,5 foizni tashkil etdi, Amudaryo va Ellikqal‘a tumanlari mos ravishda 13,8 foiz va 12,8 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Nukus shahrida (1,0 foiz) qayd etildi.

QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari.

2018 yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 2017 yilning mos davriga nisbatan o‘ishi 101,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 101,1 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 101,5 foizni tashkil qildi.


Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 101,3 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 106,5 foizi – fermer xo‘jaliklariga, 95,6 foizi – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha hududlar kesimida taqsimlanishi



■ Fermer xo‘jaliklari

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

■ Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga ochiruvchi tashkilotlar



Dehqonchilik: 2018 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 13,4 mlrd. soʻmni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,1 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy xajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 12,2 foizni tashkil qildi

Hosilni yigʻib olish. Joriy yilning yanvar – mart oylarida 241 tonna (104,3 foiz) sabzavotlar yigʻib olindi.

QISHLOQ, OʻRMON VA BALIQ XOʻJALIGI

**2018 yilning yanvar-martda xoʻjalik toifalari boʻyicha asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	Fermer xoʻjaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari		Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surati, foizda</i>
Sabzavotlar	3	75,0	225	103,2	13	144,4




Chorvachilik 2018 yilning yanvar- mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 96,6 mlrd. soʻmni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,5 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 87,8 foizni tashkil etdi.

Barcha toifadagi xoʻjaliklarda chorvachilik mahsulotlarining koʻpayishi goʻsht ishlab chiqarish hajmining – 1,3 foizga, sut – 2,2 foizga, tuxum – 2,6 foizga oʻsishi bilan izohlanadi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 14,2 ming tonna goʻsht, 46,1 ming tonna sut, 70,7 mln. dona tuxum, 24,8 ming dona qorakoʻl teri ishlab chiqarildi.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xoʻjalik toifalarining ulushi



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda goʻshtning umumiy hajmidan 95,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 91,7 foizi, tuxumning 95,3 foizi, qorakoʻl terining 92,2 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri keladi.

2018yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mah'sulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish surati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tn.	14,2	101,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	0,5	113,8
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	13,6	101,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	86,6
Sut, ming tn.	46,1	102,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	3,3	106,4
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	42,3	102,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5	82,3
Tuxum, mln. dona	70,7	102,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2,7	129,5
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	67,4	102,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,6	79,0

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

Joriy yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1057,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 303,8 ming boshga, qo'y va echkilar – 1043,4 ming boshga, parrandalar – 3876,6 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 90,8 ming boshga (9,4 foizga), shu jumladan sigirlar – 11,7 ming boshga (4,0 foizga), qo'y va echkilar – 70,9 ming boshga (7,3 foizga), parrandalar – 561,3 ming boshga (16,9 foizga) ko'paydi.

2018 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,3 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 95,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 90,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 6,0 foizi fermer xo'jaliklariga, 90,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish surati, %</i>
Yirik shoxli qoramol	1057,1	109,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	45,0	142,0
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1003,8	109,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,3	57,0
ulardan sigirlar	303,8	104,0
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	14,6	132,0
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	286,7	103,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,5	64,7
Qo'y va echkilar	1043,4	107,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	76,1	2,3m
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	939,1	108,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	28,3	40,0
Otlar	22,2	107,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	3,1	194,5
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	18,6	103,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5	45,3
Parrandalar	3876,6	116,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	234,3	142,7
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	3502,0	114,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	140,3	145,9

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Qishloq xo'jaligi va ekologiya bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **N. Madreymov**

(61) 222-76-07